

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

**Mansurova Dilafuz Uktamjonovna**  
**Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani**  
**358-DMTT direktori**

### **Annotatsiya**

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik va tashkiliy xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda direktor va tibbiy xodimlar o'rtasidagi hamkorlikning bolalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri, shuningdek, Janubiy Koreya va Buyuk Britaniya tajribalari asosida amaliy tavsiyalar keltirilgan. Maqolada sog'lom ovqatlanish, gigiyena qoidalari, jismoniy faollik, psixologik barqarorlik va ota-onalar bilan hamkorlik orqali bolalarga sog'lom odatlarni singdirishning metodik jihatlari yoritilgan. Shuningdek, direktor va tibbiy xodimning birgalikdagi faoliyati bolalarning sog'lig'i va gigiyenik madaniyatini shakllantirishda strategik ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, sog'lom turmush tarzi, bolalar salomatligi, pedagogik jarayon, direktor va tibbiy xodim hamkorligi, gigiyena madaniyati, jismoniy faollik.

### **Annotation**

The article scientifically analyzes the pedagogical and organizational aspects of forming a healthy lifestyle in preschool educational institutions. The study highlights the cooperation between directors and medical staff in promoting children's physical, mental, and social development, with practical recommendations based on South Korea and the United Kingdom experiences. The article addresses methodological approaches to instilling healthy habits through proper nutrition, hygiene rules, physical activity, psychological stability, and collaboration with parents. Moreover, the joint activities of directors and medical staff are emphasized as strategically important for shaping children's health and hygiene culture.

**Keywords:** preschool education, healthy lifestyle, child health, pedagogical process, director-medical staff cooperation, hygiene culture, physical activity.

Bugungi kunda bolalarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasi maktabgacha ta'lim tizimining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sog'lom turmush tarzi nafaqat bolaning jismoniy rivojlanishi, balki uning ruhiy, ijtimoiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarning sog'lom odatlarni erta yoshdan shakllantirishlari va ularni hayotga tatbiq etishlari zarur.

Pedagogik jarayonlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu yondashuv bolalarning jismoniy mashqlar, to'g'ri ovqatlanish, gigiyena qoidalariga rioya qilish, psixologik barqarorlik va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik va pedagogik choralardan iborat bo'lishi lozim. Shu bilan birga, pedagoglar o'z faoliyatlarida interaktiv va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib, bolalarning motivatsiyasini oshirish va sog'lom turmush tarzini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, bolalarni sog'lom hayotga tayyorlash, ularning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlash va jamiyat sog'lig'ini mustahkamlash bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom turmush tarzini

shakllantirishning pedagogik xususiyatlari, uning metodik jihatlari va amaliyotga tadbiiq etish yo'llari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar salomatligini muhofaza qilish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasi ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Sog'lom bola — bu nafaqat ta'lim jarayonining samarali ishtirokchisi, balki jamiyatning sog'lom kelajagini ta'minlovchi muhim omildir. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar salomatligini ta'minlashda direktor va tibbiy xodimlarning o'zaro hamkorligi strategik ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida sog'lom avlodni tarbiyalash, bolalar o'sishi va rivojlanishiga oid davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda, shuningdek PF-152-sonli farmonda maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'ini mustahkamlash, parvarish va ovqatlanish sifatini yaxshilash bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Ushbu hujjatlar rahbarlar va tibbiy xodimlar o'rtasida uzviy hamkorlikni tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi.

Janubiy Koreyada maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Koreya Respublikasi maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish quyidagi asosiy prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

1. Bolalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishini birlashtiruvchi kompleks dasturlar ishlab chiqilgan. Maktabgacha ta'lim muassasalarida har bir bolaga moslashtirilgan mashg'ulotlar, sport va sog'lomlashtiruvchi faoliyatlar bilan birgalikda interaktiv o'yinlar va ma'naviy-axloqiy tarbiya beriladi.

2. Har kuni bolalarga sog'lom ovqatlanish, gigiyena qoidalariga rioya qilish va jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish odatlari singdiriladi. Ota-onalar bilan hamkorlikda bolalarning uy sharoitidagi odatlari nazorat qilinadi va rivojlantiriladi.

3. Koreyada maktabgacha ta'lim pedagoglari sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi bo'yicha maxsus tayyorlanadi. Pedagoglar uchun muntazam seminarlar, treninglar va malaka oshirish kurslari tashkil etilib, innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tadbiiq etish ko'nikmalari beriladi.

Janubiy Koreya tajribasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar sog'ligini saqlashda direktor, tibbiy xodim va psixolog o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Gigiyena madaniyatini oshirish bo'yicha "Gigiyena daqiqasi" mashg'ulotlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, bolalar qo'l yuvish, tish tozalash va shaxsiy gigiyena qoidalarini amalda o'rganadilar. Tibbiy xodim amaliy ko'rsatmalar beradi, direktor esa jarayonni tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

Psixologik salomatlik dasturlari doirasida stress yoki emotsional zo'riqish alomatlari erta aniqlanadi. Direktor, psixolog va tibbiy xodim birgalikda muammoli holatlar bilan individual ishlaydi hamda ota-onalar bilan muntazam muloqotni yo'lga qo'yadi. Bundan tashqari, vaksinatsiya va tibbiy ko'riklar yiliga ikki marotaba reja asosida o'tkaziladi.

Buyuk Britaniyada maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasi davlat siyosati va milliy standartlar doirasida tartibga solinadi. Bu mamlakatda bolalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategiyalar quyidagi asosiy jihatlar bilan ajralib turadi:

1. Milliy standartlarga asoslangan yondashuv. Buyuk Britaniyada maktabgacha ta'lim muassasalari "Early Years Foundation Stage (EYFS)" milliy standartlariga muvofiq faoliyat olib boradi. Ushbu standartlar bolalarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish, xavfsiz muhit yaratish, muntazam jismoniy faollik va to'g'ri ovqatlanish odatlarini singdirishni nazarda tutadi.

2. Jismoniy faollik va sport mashg'ulotlari. Bolalar har kuni jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishga majbur qilinadi. Mashg'ulotlar interaktiv o'yinlar, sport maydonchalari va tabiat qo'llanmalarida amalga oshiriladi. Bu bolalarning sog'lom rivojlanishi va koordinatsiyasini yaxshilashga xizmat qiladi.

3. Ovqatlanish va gigiyena bo'yicha pedagogik qo'llab-quvvatlash. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga sog'lom ovqatlanish odatlari o'rgatiladi. Shu bilan birga, gigiyena qoidalariga rioya qilish va shaxsiy tozalikka oid mashg'ulotlar muntazam tashkil etiladi. Pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlikda bu jarayon nazorat qilinadi.

4. Pedagoglar va ota-onalarning malakasi. Buyuk Britaniyada pedagoglar uchun sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha maxsus treninglar va malaka oshirish kurslari tashkil etiladi. Ota-onalar bilan hamkorlik aloqalari orqali bolalarning uy sharoitida sog'lom odatlarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yilgan.

Xulosa qilib aytganda, bolalar salomatligini ta'minlashda direktor va tibbiy xodimning o'zaro hamkorligi ta'lim tizimining eng muhim bo'g'inlaridan biridir. Mazkur hamkorlik bolalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida bevosita ta'sir ko'rsatadigan omil hisoblanadi. Direktor menejer rahbari sifatida sog'lom muhitni tashkil etish, gigiyenik sharoitlarni yaratish, tibbiy xizmat faoliyatini muvofiqlashtirish bilan shug'ullansa, tibbiy xodim bolalar salomatligini saqlash, profilaktika, emlash, tibbiy ko'rik va gigiyena bo'yicha amaliy ishlarni olib boradi. Direktor va tibbiy xodimning o'zaro hamkorligi – bu faqatgina tibbiy yoki tashkiliy masala emas, balki sog'lom, barkamol va ijtimoiy faol avlodni tarbiyalashga qaratilgan kompleks tizimdir. Ularning hamjihat faoliyati natijasida bolalarning sog'ligi, gigiyenik madaniyati shakllanadi. Bu esa o'z navbatida sog'lom jamiyat va barqaror kelajak poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdullayev, Sh.X. Maqsadli ovqatlanish va bolalar salomatligi / Sh.X. Abdullayev. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020. – 248 b.
2. Karimov, R.M. Mektepke cheyinki ta'limda jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzi / R.M. Karimov. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2019. – 196 b.
3. Ministry of Education of the Republic of Korea. Early Childhood Education Policy and Healthy Lifestyle Programs. Seoul, 2021. – 34 p.
4. Department for Education (UK). Early Years Foundation Stage (EYFS) Framework. London, 2020. – 48 p.
5. Kim, J.H., Lee, S.Y. Integrative Approaches to Child Health in Korean Preschools / J.H. Kim, S.Y. Lee // International Journal of Early Childhood Education. – 2021. – Vol. 27, №2. – P. 45–59.
6. National Health Service (UK). Guidelines for Healthy Eating and Physical Activity in Early Years. London, 2019. – 62 p.
7. Valiyeva, F.R. Teoreticheskiye osnovy i evolyutsiya sistema kpi v upravleniya chelovecheskimi resursami. “Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini rivojlantirish: amaliyot va xorijiy tajriba” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to'plami 1-qismi (2024-yil 23-24-may) – T.: Science and Innovation, 2024.

8. Valiyeva F.R., Sharipova G. N. Innovative technologies in improving the management of preschool educational organizations// International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/intjecse/v14i5.94 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 05 2022

9. Abdullayeva N.Sh. Significance of health-saving technologies in a Preschool educational organization// Abstracts of V International Scientific and Practical Conference,Osaka, Japan 29-31 January 2020, 14-16 bet